

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNI TAYYORLASHDA HUQUQIY BILIM VA DEONTOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI

Lochinov Farxod Nazarovich

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Sud tibbiyoti va
tibbiyot huquqi kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.n.*

Jumayeva Dilbar Ernazarovna

*Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak shifokorlarni tayyorlashda huquqiy bilim, axloqiy-etik me‘yorlar va deontologik tarbiyaning ahamiyati haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: demokratik jamiyat, huquq, axloq, deontologik tarbiya, bioetika.

Bo‘lajak shifokorni tayyorlash hozirgi zamon yoshlarini tarbiyalashning muhim organik tarkibiy qismi bo‘lib, bunda huquqiy va deontologik qoidalarga amal qilish talab etiladi. Bu o‘z navbatida shifokorlarning barcha kasbiy faoliyati axloqiy-etik me‘yorlar va ma‘lum qoidalarga asoslanishi bilan ajralib turadi.

Mustaqil O‘zbekistonda demokratik davlat va huquqiy jamiyatning shakllanishi, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar tibbiyot xodimlari oldiga alohida talablar qo‘ymoqda. Bunda tibbiy faoliyatning huquqiy me‘yorlari, fuqarolarning sog‘liqni saqlash sohasidagi manfaatlari va huquqlarini himoya qilish masalasi alohida siyosiy va ijtimoiy o‘rin egallaydi.

Bo‘lajak shifokorni huquqiy tarbiyalash, demokratik qonunchilikka rioya qilish davlatimiz siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, davlat va jamiyat hayotida qonunchilik hamda huquqiy tartibni mustahkamlash masalalari mamlakatimizda qonunchilik asoslarini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Yosh kadrlar ijtimoiy faolligining shakllanishida eng muhim vositalardan biri demokratik huquq sanaladi. Demokratik jamiyatni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va yangi avlodni shakllantirish masalasida respublikamiz hukumati davlat va jamiyat hayotining huquqiy asoslarini mustahkamlashga alohida ahamiyat berib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolar singari yoshlarga ham keng huquq berilganligi uqtirilgan. Shulardan biri O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosiga qobiliyati va yo‘nalishiga qarab bilim olishi ta‘minlanganligi ko‘rsatilgan.

Ta‘lim va tarbiyaga e‘tibor-kelajakka e‘tibor. Jamiyatdagi jamiki o‘zgarishlar, yangilanishlar bevosita ta‘lim va tarbiya rivoji bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoniga asosan O‘zbekiston

Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyada ham talabalarning ma'naviy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan.

- talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish;
- oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish;
- yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash va hk.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb qarashgan. Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat keng quloch yoygan, ilm taraqqiy etgan mamlakatlardagina adolatli jamiyat qurish va unda bir biriga mehr-oqibatli komil insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga ezgulikka intilishi kuchli bo'ladi.

Bugungi kunda tibbiyot sohasida olamshumul o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Tibbiyot sifat jihatidan yangi shakl-shamoyil kasb etmoqda. O'tgan asrning ikkinchi yarmida boshlangan fundamental tibbiyot - biologiya fanlarining davom etayotgan jadal rivojlanishi mazkur jarayonga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Inson genomi tuzilishini o'rganish, genetikaning yangi qirralari: genomika, protoinomaning kashf etilishi, tegishli ma'lumotlar banklarining tuzilishi, hujayra biologiyasidagi yirik kashfiyotlar mazkur yunalishda erishilgan ulkan yutuqlar jumlasidandir.

Kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining rivojlanayotgan ijodiy faoliyatida umumiy ta'limdan individual ta'limga o'tishni taqozo qiladi.

Ma'naviyat va ta'lim qadriyatlarini integratsiyalash O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq insonparvarlik sifatini takomillashtirish jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Amaliyot sohasiga nazariy fanlarning kirib kelish jarayonining kuchayishi ularni ta'lim jarayonida kasbiy va ijtimoiy-gumanitar tayyorgarligining yaxlitligi, zamonaviy biotibbiy va ijtimoiy bilimlarning mushtarakligi nuqtai nazaridan muvofiq tarzda, tezkorlik bilan aks ettirishga katta talablar qo'yadi. Ushbu nuqtai nazardan talabalarni bioetika, ya'ni tibbiyot, biologiya, huquq, mantiq, psixologiya, sotsiologiya hamda biotibbiyot fanining taraqqiyoti va sog'liqni saqlash amaliyotiga yangi texnologiyalarning joriy etilishi munosabati bilan yuzaga kelayotgan boshqa fanlar majmuasi tutashgan joydagi etika, falsafa va antropologiya muammolarini tadqiq qilishning jadal rivojlanib borayotgan yangi sohasi bilan tanishtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Chuqur bilimlarni yuksak axloq va madaniyat bilan uyg'unlikda o'zida

mujassamlashtirgan mutaxassislargina jamiyat ravnaqini ta'minlay oladi. Bugungi kunda ma'naviy jihatdan yuksak shaxsni voyaga yetkazish nafaqat ta'lim sohasining asoslari va dolzarb muammolaridan biri bo'libgina qolmasdan, balki milliy xavfsizlikni ta'minlash omili, huquqiy, ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish vositasi, uning barqaror rivojlanishiga erishish sharti hamdir.

Tarbiya ishi markazida bo'lajak mutaxassis shaxsining rivojlanishiga individual yondashish yotadi. Usib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashni yaxshilash masalasi davlatimiz va jamoatchilik oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib, bu kelajakda vatanimizni ishonchli kadrlar bilan ta'minlashga asos bo'ladi.

Hozirgi davrda tibbiyot xodimlarining erkin, samarali faoliyat olib borishlari uchun faqat o'zining ixtisosi bo'yicha yaxshi, to'laqon bilimga egalik va tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirish yetarli bo'lmay, bulardan tashqari tibbiy faoliyat bilan bog'liq axloqiy-etik, huquqiy me'yorlarni bilish talab etiladi. Binobarin, ayni mazkur me'yorlar talablarini lozim darajada yoki umuman bajarmaslik fuqarolar tomonidan tibbiyot xodimlarining faoliyatiga nisbatan asosli jiddiy e'tiroz, noroziliklarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammoning yechimida bioetika fani bo'yicha bilim, ko'nikmlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bioetika - o'quv fani sifatida fanlararo tadqiqotlar sohasi bo'lib, shiddat bilan rivojlanmoqda. Bioetikaning fanlararo integratsiyalanuvchi soha sifatida, asosiy yo'nalishlari zamonaviy bilimlar sohalarida, biologiya va tibbiyotda inson harakatlarini tizimli ravishda tahlil qilish, ilmiy tekshirishlarning inson a'zo va to'qimalarini klonlashtirish, gen injeneriyasi kabi sohalarida yangi gumanistik va axloqiy qadriyatlar hamda tamoyillarini yaratish, inson ishtiroki bilan o'tkaziladigan biotibbiy tekshiruvlarda inson huquqlari va qadr-qiymatini himoya qilish, hayvonlarda o'tkaziladigan eksperimentlar, transplantologiya, evtanaziya, psixiatriya sohalarida axloqiy-huquqiy, ijtimoiy-ma'naviy asoslarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, inson organizmining hujayralari, to'qimalari, a'zolari va sistemalarinnig embrional va postembrional taraqqiyoti, mikroskopik va submikroskopik tuzilishi, ularning hayot faoliyati qonuniyatlari, fan tarixi va rivojining tendentsiyasi, istiqboli masalalarini qamraydi hamda bo'lg'usi umumiy amaliyot shifokorlarida klinik fikrlash, kasallik va uning belgilarini asoslash uchun zamin yaratadi va ijtimoiy-ma'naviy asoslarini shakllantirish orqali tibbiy yordam ko'rsatishdagi nuqsonlarni bartaraf etishda aloxida ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak shifokorni huquqiy va demokratik tamoyillar asosida tarbiyalashdagi deontologik tarbiyaning vazifasi – hozirgi zamon tibbiyotida insonparvarlik g'oyalarini o'zida mujassamlantiruvchi shifokorni tarbiyalash, shifokorlik faoliyati va hayotining mazmuni ekanligini uning ongiga singdirish, bu odat shifokorning maqsadi, o'lchami, intilishi va kundalik xulqini ko'rsatishdir.

Shifokorlik kasbining bosh xususiyatlaridan biri va muhimligi inson sog'lig'i

hayotini saqlash shifokorning asosiy vazifalaridan hisoblanib, bu shifokorlarning muhim javobgarligini talab qiladi, chunki inson uchun eng buyuk narsa uning sog‘lig‘i va hayotini saqlash masalasi shifokorga topshirilganligini doimo esdan chiqarmaslik zarur.

Deontologiya qoidalarini buzilishi bemorlar, ularning qarindoshlari va tibbiyot xodimlari o‘rtasida har xil kelishmovchiliklar, ayniqsa davolashning noxush oqibatlari bunday voqealarning sababchisi bo‘lishi mumkin. Ba‘zan tibbiyot deontologiyasi qoidalariga rioya qilinmasligi tufayli bunday kelishmovchiliklar bemorlarni to‘g‘ri davolaganda ham ko‘pchilik komissiyalar hatto tergov va sud idoralari tahlilining asoschisi hisoblanishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 1996.
3. “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni 2016-yil 14-sentyabr, O‘RQ-406-son Toshkent sh.
5. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. //LEX.UZ/DOCS/4545884.
6. Baxriyev I.I., Lochinov F.N. “Shifokorlarni tayyorlashda huquq va deontologiya asoslari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2023.
7. G‘iyosov Z.A., Indiaminov S.I. Bioetika. Darslik. Toshkent, 2022.